

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21624266>

Adabiyotshunoslikda obraz va xarakter tipologiyasi: nazariy-estetik va konseptual talqinlar

Ma'diyeva Adiba Dovudovna –

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti v.b.,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: adibamadiyeva@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3084-6616>

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy obraz va obrazlilik tushunchalarining etimologik ildizlari, nazariy-estetik mohiyati hamda adabiyotdagi o'rni atroflicha tadqiq etiladi. Tadqiqotda dunyo va milliy adabiyotshunoslikning yetakchi namoyondalari (Aristotel, Gegel, V.Belinskiy, I.Sulton, M.Qo'shjonov, D.Quronov) qarashlariga tayanilgan holda, badiiy obrazning shakllanish omillari va asosiy xususiyatlari (umumlashtirish, individuallik, badiiy to'qima, emotsionallik) tizimlashtirilgan. Shuningdek, maqolada personaj, ijobiy va salbiy qahramon, badiiy xarakter hamda adabiy tip tushunchalari o'rtasidagi tasnifiy va nazariy farqlar, obrazlarning metod va gnoseologik xususiyatlariga ko'ra (realistik, romantik, fantastik, majoziy, mifologik) turlanishi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, obrazlilik, mimesis, xarakter, adabiy tip, personaj, tipiklik, individuallik, badiiy to'qima, obrazlar tizimi, allegoriya.

Современная модель развития речи детей дошкольного возраста посредством художественных выражений: мультимодальный подход

Аннотация. В данной статье подробно исследуются этимологические корни, теоретико-эстетическая сущность и роль понятий «художественный образ» и «образность» в литературе. На основе взглядов ведущих представителей мирового и национального литературоведения (Аристотель, Гегель, В. Белинский, И. Султан, М. Кушжанов, Д. Куронов) систематизированы факторы формирования и основные характеристики художественного образа (обобщение, индивидуальность, художественный вымысел, эмоциональность). Также в статье научно обоснованы классификационные и теоретические различия между понятиями «персонаж», «положительный и отрицательный герой», «художественный характер» и «литературный тип», а также дифференциация образов по методам и гносеологическим особенностям (реалистические, романтические, фантастические, аллегорические, мифологические).

Ключевые слова: художественный образ, образность, мimesis, характер, литературный тип, персонаж, типичность, индивидуальность, художественный вымысел, система образов, аллегория.

A modern model of speech development in preschool children through artistic expressions: a multimodal approach

Annotation. This article provides a comprehensive investigation into the etymological roots, theoretical-aesthetic essence, and significance of the concepts of "artistic image" and "imagery" in literature. Based on the theoretical insights of prominent figures in global and national literary theory (Aristotle, Hegel, V. Belinsky, I. Sultan, M. Kushjanov, D. Kuronov), the study systematizes the formative factors and key attributes of artistic imagery (generalization, individuality, artistic fiction, and emotionality). Furthermore, the paper provides a scientific rationale for the conceptual distinctions among terms such as character, protagonist/antagonist, artistic character, and literary type. It also classifies artistic imagery based on methodological and epistemological characteristics (realistic, romantic, fantastic, allegorical, and mythological).

Keywords: artistic image, imagery, mimesis, character, literary type, persona, typicality, individuality, artistic fiction, system of imagery, allegory.

KIRISH

Insoniyat borliqni anglashda ikki xil yo'ldan boradi: fan dunyoni mantiqiy tushunchalar va qat'iy raqamlar orqali tushuntirsa, adabiyot uni jonli, his qilinadigan va ko'z oldimizda gavdalanadigan manzaralar – obrazlar vositasida kashf etadi. Obraz tushunchasining ildizi slavyan tillariga borib taqaladi. Bu so'zning o'zagi "раз" (chiziq) bo'lib, undan разить (chizmoq, yo'nmoq, o'ymoq), so'ngra образить (chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq) fe'li paydo bo'lgan. Ana shu zanjir asosida vujudga kelgan obraz atamasi lug'aviy jihatdan umuman olingan tasvir degan ma'noni anglatadi. Mohiyatan u voqea-hodisalarning inson xayolida namoyon bo'ladigan jonli manzarasini bildiradi. Obraz mazmun va shaklning, mavzu va g'oyaning uzviy birligidan yaralgan mukammal butunlikdir. Badiiy asarning yaratilish jarayonida til, kompozitsiya, ohang va ritm kabi unsurlar jonli badiiy obrazni shakllantiruvchi asosiy poydevor vazifasini o'taydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Badiiy obraz obrazlilik tushunchasining o'zagi bo'lib, u adabiy ijodning butun mohiyatini o'zida mujassam etadi. Shuning uchun ham obrazlilik san'atning, xususan, adabiyotning yuragi va uning o'ziga xos tili hisoblanadi. Qisqasi, obrazlilik badiiylilik demakdir. U hayotiy hodisalarni ijodkor qalbida qayta ishlab, ularga yangi ma'no va estetik ruhiyat bag'ishlaydi. Mashhur nemis faylasufi G.Gegel o'zining estetik qarashlarida san'atning mohiyatini juda go'zal va lo'nda ifodalab, San'at obrazlar orqali fikrlashdir[1.], deb ta'kidlagan edi. Albatta, yozuvchi o'zining ezgu g'oyalarini, falsafiy xulosalarini bizga hayotiy obrazlar vositasida taqdim etadi. Biz asarni o'qiyotganda quruq ma'lumot olibgina qolmay, o'sha voqelik ichida yashaymiz. Obraz tushunchasining ildizlari juda qadimiy bo'lib, antik davrning buyuk mutafakkiri Aristotel uni mimesis, ya'ni taqlid, deb atagan. Uning fikricha, san'at hayotga taqlid qilish orqali yangi bir badiiy olam – obrazni yaratadi[2]. Adabiyotshunoslikda obraz atamasi ikki xil ma'noda tushuniladi. Keng ma'noda u asardagi har bir detal, shivirlayotgan barglar (peyzaj), qahramonning qo'lidagi eski soat (detal) yoki biror ramziy belgi bo'lishi mumkin. Tor ma'noda esa obraz deganda, birinchi navbatda, inson tasviri, uning hayoti, ruhiyati va qiyofasi tushuniladi. O'zbek adabiy tafakkurida bu tushuncha qadimdan mavjud bo'lsa-da, XX asr boshlarigacha u timsol, tasvir kabi so'zlar bilan ifodalangan. Bugungi kunda biz qo'llayotgan obraz atamasi 1920-30-

yillardan boshlab ilmiy iste'molga kirib kelgan. Mashhur adabiyotshunos olim Izzat Sulton obrazning insoniy mohiyatiga to'xtalib, shunday deydi: Badiiy obraz – san'atkor tomonidan hayotning muayyan bir bo'lagini, xususan, inson hayotini idrok etish va umumlashtirish natijasida yaratilgan jonli qiyofadir[3]. Agar asarda jonli obraz bo'lmasa, u qanchalik to'g'ri gaplarni aytmasin, san'at asari hisoblanmaydi. Chunki faqat obrazli tafakkurgina bizning qalbimizga yo'l topadi, bizni hayratga soladi va dunyoni yangicha nigoh bilan ko'rishga o'rgatadi.

San'atkor aynan badiiy obraz vositasida dunyoni angelaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda obraz adabiyotning fikrlash shakli bo'lib, bu jarayon obrazli tafakkur deb yuritiladi. Obrazli tafakkur borliqni mantiqiy tushunchalar bilan emas, balki his qilinadigan manzaralar orqali aks ettirish san'atidir. V.G.Belinskiy aytganidek, San'at borliqni silogizmlar (mantiqiy xulosalar) bilan isbotlamaydi, balki obrazlar vositasida ko'rsatadi[4.] Bu yerda fikr va tasvir bir-biridan ajralmas bo'lib, yozuvchi vatan sog'inchi haqida nazariy ma'ruza o'qimaydi, musofirlikda vatan tuprog'ini ko'ziga surtgan qahramon qiyofasini chizadi. Badiiy asar yozuvchi tomonidan qayta kashf etilgan yangi bir olamdir. Bu olamning markazida esa, shubhasiz, inson obrazi turadi. San'atkor hayotni o'z tafakkuri va tuyg'ulari chig'irig'idan o'tkazib, qayta yaratadi. To'g'ri, badiiy obraz tushunchasi keng qamrovli, ammo biz ko'pincha obraz deganda aynan inson taqdiri va qiyofasini tasavvur qilamiz. Chunki adabiyotning markazi ham, bosh mavzusi ham – inson. G'oyaviy va badiiy jihatdan yetuk asarlardagi qahramonlar orqali biz nafaqat bir shaxsning hayotini, balki o'sha davrning butun manzalarini, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni aniq va ravshan his etamiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mashhur adabiyotshunos olim L.I.Timofeyev obrazga juda o'rinli ta'rif berib, uni shunday ta'riflaydi: Obraz – badiiy to'qima yordamida yaratilgan, estetik qiymatga ega bo'lgan inson hayotining ham umumlashtirilgan, ham aniq (konkret) manzarasidir[5]. Ushbu ta'rifdan anglashiladiki, haqiqiy badiiy obraz shakllanishi uchun quyidagi to'rt asosiy xususiyat mavjud bo'lishi shart:

1) *Umumlashtirish*, ya'ni tipiklik. Obraz faqat bir kishining xususiyati emas, balki ko'plab insonlarga xos bo'lgan xarakterli belgilarni o'zida jamlashi kerak. Masalan, xasis qahramon timsolida biz jamiyatdagi barcha xasislar fe'l-atvorini ko'ramiz;

2) Aniq individuallik, *konkretlik*. Obraz qanchalik umumiy mohiyatga ega bo'lmasin, u o'zining betakror qiyofasi, ovozi, faqat o'ziga xos nutqi va odatlari bilan tirik insondek tasavvurda gavdalanishi lozim. Individuallik uni tirik shaxsga aylantiradi.

3) *Badiiy to'qima*, ya'ni fantaziya. Yozuvchi hayotiy faktlarni nusxalabgina qolmay, g'oyani teranroq ochish, badiiy haqiqatni yaratish uchun ijodiy to'qimadan foydalanadi. Bu obrazga estetik joziba va badiiy mantiq bag'ishlaydi.

4) Ta'sirchanlik, ya'ni *emotsionallik*. Eng muhimi, yaratilgan obraz kitobxonning qalbini junbushga keltirishi, unda hamdardlik, hayrat, muhabbat yoki nafrat kabi kuchli hissiyotlarni uyg'ota olishi shart. Hissiz yaratilgan obraz o'quvchi e'tiborini tortolmaydi. Shunday qilib, mazkur xususiyatlar yaxlitlikni tashkil etganda, badiiy obraz haqiqiy san'at darajasiga ko'tariladi. Bu sifatlar qahramonni shunchaki qog'ozdagi tasvirdan bizning ruhiyatimiz bilan muloqot qiladigan, dunyoqarashimizni kengaytiruvchi va yuksak insoniy g'oyalar tashuvchisiga aylantiradi.

Adabiyotshunoslikda inson timsolini ifodalash uchun qo'llaniladigan terminlar silsilasi o'zining rang-barangligi va ma'no ko'lamini bilan ajralib turadi. Ushbu tushunchalar ichida eng keng qamrovlisi va asosiy tayanchi – *personaj* (lot. *persona* – shaxs, teatr maskasi) terminidir. Odatda personaj deganda badiiy asardagi voqea ishtirokchisi, muayyan his-kechinma va nutq subyekti, ya'ni qog'ozga tushirilgan inson obrazi tushuniladi. ... asarda qimirlaganki inson obrazi bo'lsa – katta yo kichikligi, syujetdagi ishtiroki, asar strukturasida

tutgan o'rnidan qat'iy nazar – hammasini personaj deb atash mumkin[6.]. Sababi, bu termin *qahramon*, *ishtirok etuvchi*, *xarakter* terminlari bilan bitta sinonimik qatorni tashkil qiladi va neytral ma'nosi bilan dominant vazifasini o'taydi. Mazkur atamalar o'zaro farqlanadi, chunki ularning har biri qahramonning asar syujetidagi o'rne, u ko'tarib chiqqan g'oyaviy vazifasining ko'lami va hayotiy haqiqatni qay darajada umumlashtira olganiga ko'ra turlicha mohiyatga ega. Adabiyotshunoslikda qahramon tushunchasi kundalik hayotdagi ma'nosidan birmuncha kengroq ko'lamga ega. Odatda bu so'z quloqqa chalinganda ko'z o'ngimizda shijoatli, dovyurak va mard insonlar gavdalansa-da, badiiy asar doirasida u ijobiy yoki salbiyligidan qat'i nazar, voqealar markazida turuvchi barcha bosh ishtirokchilarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, Oybekning «Qutlug' qon»idagi Yo'lchi ham, unga qarama-qarshi turgan Mirzakarimboy ham, yoki Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar»idagi Hamid ham o'z ampulasida *qahramon* sanaladi. Buning boisi shundaki, har qanday salbiy personaj ham asar to'qimasiga ma'lum bir voqea-hodisaning yuzaga kelishi va syujetning rivojlanishi uchun asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida kiritiladi.

Adabiyot hayot haqiqatlarini asosan ikki xil yo'l – tasdiqlash yoki inkor etish orqali tadqiq etadi. Aynan mana shu uslubiy yondashuv natijasida obrazlar o'zining ma'naviy-axloqiy yo'nalishiga ko'ra ikki qutbga ajratiladi. Xatti-harakati va xarakter xususiyatlari bilan ezgu xislatlarni o'zida mujassam etgan, kitobxon uchun ma'naviy o'rmak bo'la oladigan hamda jamiyatni komillikka chorlaydigan siymolar *ijobiy obrazlar* deb yuritiladi. Aksincha, o'zining tabiatidagi qabihlik va yovuzlik bilan o'quvchida nafrat uyg'otadigan, jamiyatni tanazzulga tortuvchi va inkor etilishi lozim bo'lgan qiyofalar *salbiy obrazlar* hisoblanadi. Shuni unutmaslik kerakki, har ikki turdagi obraz ham yozuvchining badiiy niyatini ro'yobga chiqarishda, hayotdagi ziddiyatlarni bor bo'yi bilan ko'rsatib berishda teng darajada ahamiyatlidir.

Badiiy asar markazida turuvchi inson qiyofasining eng yuqori va mukammal ko'rinishi *xarakter* hisoblanadi. Yunoncha “charakter” so'zi lug'aviy jihatdan xususiyat yoki belgi ma'nosini anglatib, adabiyotshunoslikda u obrazning xislati, ya'ni L.I.Timofeyev iborasi bilan aytganda, obrazning “yadro”si hisoblanadi. Xarakter, birinchi navbatda, aniq hayotiy sharoitda o'zining mustaqil xatti-harakatlari va ichki ruhiy kechinmalari bilan namoyon bo'ladigan jonli inson tasviridir. Nazariy manbalarda xarakterning mohiyatini yorituvchi ikki muhim jihat ko'rsatiladi, ya'ni avvalo shaxs irodasining yo'nalishi bo'lsa, ikkinchisi uning xulq-atvorini belgilaydigan individual belgilardir. Xarakterning haqiqiy tabiatini tushinishda N.Pogodinning quyidagi fikri g'oyatda ahamiyatlidir: Agar odam burnini qashisa yo qashimasa, sekin yoki tez yursa, shu bilan xarakter bo'lavermaydi. Xarakter – shaxs irodasining yuzaga chiqishi, harakatda ifodalanishidir[7.]. Bundan ayon bo'ladiki, tashqi ko'rinish yoki odatiy harakatlar hali xarakter darajasiga ko'tarilmagan bo'ladi; haqiqiy xarakter personajning hayotiy to'siqlarga qarshi qanday iroda ko'rsatishi va qanday tanlovni amalga oshirishi bilan belgilanadi. Shaxsning bunday irodaviy intilishi uning muhit bilan bo'lgan faol munosabatidan tug'iladi. Ikkinchi tomondan, mardlik, qo'rqqoqlik, mehnatsevarlik kabi individual ruhiy xususiyatlarsiz ham xarakterni tasavvur qilib bo'lmaydi. Akademik M.Qo'shjonov ta'kidlaganidek, “Xarakter – bu aniq iroda yo'nalishi va o'zining individual xususiyatlari bilan boshqalardan keskin ajralib turadigan obrazdir”[7] Olim ushbu nazariyani Oybekning “Qutlug' qon” romanidagi Yo'lchi obrazi misolida isbotlab bergan. Yo'lchida mehnatkash xalq vakillariga xos umumiy xislatlar bilan birga, uning o'ziga xos soddaligi, uyatchanligi va jasorati kabi shaxsiy belgilari uyg'unlashib ketgan. Aynan ijtimoiy muhit ta'sirida unda shakllangan isyonkorlik va o'z-o'zini anglash xususiyati uni oddiy ishtirokchidan mukammal xarakter darajasiga ko'targan. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday badiiy obraz ham xarakter bo'la olmaydi, xarakter bo'lish uchun obraz yaxlit va pishiq bo'lishi kerakki, u go'yo bir butun ma'dandan yasalgan haykaldek taassurot qoldirishi lozim. Bunday mukammallikning eng yuqori bosqichi esa adabiy tip darajasiga ko'tariladi.

Tip (toifa) yunoncha “typos” soʻzi lugʻaviy jihatdan iz, nusxa, tamgʻa kabi maʼnolarni anglatib, adabiyotshunoslikda u oʻziga xos ruhiy xususiyatlari bilan maʼlum bir ijtimoiy qatlam, sinf yoki guruhning eng muhim sifatlarini oʻzida mujassam etgan shaxslar obrazini bildiradi. Akademik M.Qoʻshjonov taʼrifiga koʻra, adabiy tip muayyan tarixiy sharoitda yashagan butun bir toifaga mansub kishilarning umumiy belgilarini oʻzida jamlagan mukammal badiiy obrazdir[8]. Sanʼat asaridagi har bir puxta ishlangan obraz xarakter boʻla olsa-da, faqat har taraflama chuqur va ijtimoiy salmoqli xarakterlarga adabiy tip darajasiga koʻtariladi. Oʻzbek adabiyotining durdonalari hisoblangan «Oʻtkan kunlar»dagi Otabek va Kumush, «Mehrobdan chayon»dagi Anvar va Raʼno, shuningdek, «Kecha va kunduz» romanidagi Miryoqub va Zebi kabi siymolar aynan shunday mukammal realistik tiplar sirasiga kiradi. Adabiy tip aniq xarakterga, oʻziga xos taqdirga, shaxsiy his-tuygʻularga va hatto betakror tashqi qiyofaga (portretga) ega boʻlgan jonli shaxsdir. Masalan, Oybekning «Navoiy» romanidagi Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro kabi obrazlarning har birida ham muayyan ijtimoiy tabaqaning belgilari, ham ularning shaxsiy axloqini belgilovchi individual fazilatlar oʻzaro uygʻunlashib ketgan. Har bir adabiy tip, ayni chogʻda, mukammal bir xarakter hamdir. Zero, hayotni badiiy tadqiq etish va uni bor boʻyi bilan aks ettirish adabiyotda aynan mana shunday jonli xarakterlar va teran tiplar yaratish orqali amalga oshiriladi. “Adabiy tiplarning umumlashtiruvchi kuchi shunchalik kattaki, ular keyingi zamonlarda katta sosial va psixologik hodisalarning mujassami boʻlib, xalqlar ongiga kiradilar. Masalan, biz bugun ham birovning ishqda cheksiz sadoqati va sofligini bildirmoqchi boʻlsak, uni «Farhod» deb ataymiz. Firibgarlarni esa Xlestakov nomi bilan bogʻlaymiz yoki biror shaxsning zoʻravonligini aytmoqchi boʻlsak, uning Xisrav bilan oʻxshashligini esga olamiz. Shunday qilib, tiplar hayotdagi koʻpgina umrboqiy hodisalarning turdosh nomi boʻlib qoladi. Adabiy tiplar hayotiy hodisalarning eng umumlashgan va yorqin tasviri sifatida doimo katta gʻoyaviy estetik qimmatga egadirlar. Yozuvchi tomonidan yaratilgan tip – oliy mahorat namunasidir. Tipdagi umumiylik undagi individuallikni yoʻqqa chiqarmaydi, haqiqiy badiiy asardagi har bir shaxs tip boʻlishi bilan birga, tamomila muayyan bir shaxsdir[9]. Adabiyot tarixida inson obrazini yaratish tajribasini kuzatar ekanmiz, badiiy tasvir uslubi va ijodiy metodga tayanib, obrazlarni quyidagi toʻrtta asosiy turga ajratish mumkin. *Realistik obrazlarning* xarakter xususiyatlari, hayot tarzi va xatti-harakatlari real borliqdagi kishilarga toʻla mos keladi. Ularda inson tabiatining murakkabligi, ijtimoiy muhit bilan bogʻliqligi va hayotiy haqiqat yetakchilik qiladi. *Romantik obrazlar* hayotdagi mavjud voqelikdan koʻra, yozuvchining idealidagi qahramonlardir. Ular odatda gʻayratli, murosasiz va yuksak tuygʻular sohibi boʻlib, koʻpincha favqulodda vaziyatlarda namoyon boʻladi. Bunday siymolarda yozuvchining jamiyat qurilishi, inson kamoloti va kishilar oʻrtasidagi ideal munosabatlar haqidagi ezgu niyatlari yorqin namoyon boʻladi. Adib bunday obrazni yaratish orqali hayotda mavjud boʻlgan emas, balki boʻlishi orzu qilingan mukammal inson qiyofasini chizishga intiladi. Shu sababli, romantik obrazlar kitobxonda nafaqat hayrat uygʻotadi, balki uni ruhan yuksaklikka, goʻzallikka va qatʼiyatga chorlaydigan maʼnaviy mayoq vazifasini oʻtaydi. *Xayoliy-fantastik obrazlar* esa ijodkor tasavvuri (fantaziyasi) mahsuli boʻlgan, real hayotda uchrashi imkonsiz, ammo muayyan gʻoyani ifodalash uchun xizmat qiladigan gʻayritabiiy kuch va qiyofaga ega timsollardir. Bunday obrazlar gʻayritabiiy qudratga ega, moʻjizaviy va ilohiy xususiyatlar sohibi qilib tasvirlanadi. Xalq dostonlari va ertaklaridagi Alpomish, Rustam yoki Semurgʻ kabi qahramonlarni aynan xayoliy-fantastik obrazlarning yorqin namunasi sifatida eʼtirof etish mumkin. Ular orqali xalqning asriy orzu-umidlari, yovuzlik ustidan ezgulikning tantanasi va inson irodasining cheksiz imkoniyatlari badiiy boʻyoqlarda, afsonaviy shaklda namoyon boʻladi.

Majoziy (simvolik) obrazlar muayyan narsa-hodisalar qiyofasini ramziy maʼnoda umumlashtirib ifodalovchi badiiy timsollardir. Bunday obrazlar adabiyotda voqelikning taʼsirchanligini oshirish, fikrni pardoqlab yoki yashirin maʼnolar qatlamiga oʻrab yetkazish

uchun keng qo'llaniladi. Xususan, mumtoz adabiyotda "yor" timsoli keltirilganda bevosita Olloh nazarda tutilsa, "gul" yoki "lola" kabi obrazlar ishq-muhabbat va ko'ngil izhorining go'zal ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Majoziy obrazlarning o'ziga xos va keng tarqalgan turlaridan biri allegorik, ya'ni kinoyaviy obrazlardir. Allegoriya, odatda, masal va ertak janrlarida yetakchi o'rin tutib, ularning asosiy qahramonlari hayvonlar va qushlar qiyofasida gavdalanadi. Bunday asarlarda jonivorlarning xatti-harakatlari va o'zaro munosabatlari orqali ayrim insonlarning fe'l-atvoridagi nuqsonlar, jamiyatdagi illat va kamchiliklar ochiq-oydin fosh etiladi. Shu tariqa, majoziy va allegorik obrazlar hayotiy haqiqatlarni obrazli va unutilmas shaklda kitobxon shuuriga yetkazadi.

Mifologik obrazlar insoniyat badiiy tafakkurining eng qadimiy qatlami bo'lib, ular xalq og'zaki ijodi, afsona va asotirlar zahirida shakllangan g'ayritabiiy siymolardir. Mifologik obrazlar qadimgi odamlarning dunyoqarashi, koinotning yaralishi, hayot va o'lim, ezgulik va yovuzlik haqidagi ilk tasavvurlari badiiy shaklda muhrlangan. Mifologik qahramonlar ko'pincha ramziy xarakterga ega bo'lib, ma'lum bir g'oyaning timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, yunon mifologiyasidagi Prometey – insoniyatga ziyo va olov keltirgan, fidoyilik va zulmga qarshi isyon timsoli bo'lsa, Antey – ona yer bilan uzviy bog'liqlik va yengilmaslik ramzidir. Sharq mifologiyasida esa Qayumars ilk inson va podshoh sifatida talqin qilinsa, Jamshid obrazi madaniyat, kashfiyotlar va davlat boshqaruvi bilan bog'liq afsonaviy asotirlar asosida yaratilgan. Adabiy asarning qaysi adabiy turga mansubligi qahramon tabiatini va uning asar matnidagi o'rnini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. *Epik obrazlarda* hayot voqea-hodisalari keng va atroflicha tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Bunday qahramonlar tasvirida voqeabandlik va obyektivlik ustunlik qiladi. Kitobxon ularning hayot yo'lini, o'zgarishlarini va boshqa personajlar bilan bo'lgan murakkab munosabatlarini uzoq vaqt kuzatish imkoniga ega bo'ladi. Hikoya, qissa va roman janrlaridagi barcha yetakchi simvollar epiklik xislatlarini o'zida namoyon etadi. Bundan farqli o'laroq, *lirik obrazda* tashqi olam emas, balki insonning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'ylari birinchi o'ringa chiqadi. Lirik turning janrlari bo'lmish g'azal, ruboiy yoki she'rlarda namoyon bo'luvchi lirik qahramon inson ruhiyatining muayyan lahzadagi holatini aks ettiruvchi eng tipik misoldir. Bu yerda qalb tug'yonlari yetakchilik qiladi. *Dramatik obrazda* esa voqelik bevosita harakat va so'z (dialog) orqali sahnada namoyon bo'ladi. Tragediya, komediya kabi drama janrlaridagi obrazlar o'z xarakterini faqat o'zgalar bilan bo'lgan jonli munosabatda, to'qnashuvlarda va harakatlarda ochib beradi. Dramatik qahramonlarning har bir so'zi va qadami uning ichki qiyofasini namoyon etadi. Shuningdek, hayotdagi nuqsonlarga munosabat nuqtayi nazaridan satirik va yumoristik obrazlar ajralib turadi. *Satirik obrazlarda* jamiyat yoki shaxsiy hayotdagi qusurlar ustidan zaharxanda kulgu, sarkazm va keskin fosh etish usuli ustunlik qiladi. Bunday qahramonlarning ichki dunyosidagi yaramas va arziyasiz odatlari ayovsiz tanqid ostiga olinadi. *Yumoristik obrazlarda* esa inson tabiatidagi ayrim kamchiliklar yengil va quvnoq kulgu ostiga olinadi. Bunday tasvirdan maqsad qahramonni kamsitish emas, undagi nuqsonlarni beg'araz hazil orqali ko'rsatib, uni tuzatishga chorlashdir.

XULOSA

Badiiy asar o'zaro murakkab aloqalar bilan bog'langan yaxlit bir olam, deb ham xarakterlanadi. Shu bois adabiyotshunoslikda qahramonlarning asar matnidagi o'rni va guruhlanishiga ko'ra obrazlar tizimi va obrazlar galereyasi kabi muhim tushunchalar qo'llaniladi. Obrazlar tizimi (sistemi) asardagi barcha personajlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi, ularning syujet voqealari va markaziy g'oyani ochib berishdagi o'zaro munosabatlari majmuidir. Bunday tizimda har bir obraz (xoh u bosh qahramon bo'lsin, xoh ikkinchi darajali) umumiy zanjirning bir halqasi vazifasini o'taydi. Masalan, bir oila a'zolari yoki qarindosh-urug'lar silsilasini olaylik: ota-ona, farzand va nevara obrazlarining ketma-ketligi orqali muallif avlodlar davomiyligi, qadriyatlar vorisiyligi yoki aksincha, ota-onalar

va bolalar o'rtasidagi ziddiyatlarni ko'rsatib beradi. Obrazlar galereyasi tushunchasi esa asardagi ma'lum bir ijtimoiy guruhga, toifaga yoki umumiy manfaatlariga ega bo'lgan personajlar majmuasiga nisbatan qo'llaniladi. Galereya qahramonlarning o'ziga xos "ko'rgazmasi" bo'lib, unda muallif jamiyatning muayyan qatlamini (masalan, boylar, kambag'allar, munofiqlar, firibgarlar yoki ziyolilar toifasini) turli qirralardan ochib beradi. Agar obrazlar tizimi qahramonlarni voqealar zanjiriga bog'lasa, obrazlar galereyasi ularni xarakter xususiyatlari va ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra birlashtiradi. Masalan, bir guruh salbiy kimsalarning asardagi ishtiroki orqali yozuvchi o'sha davrning chirkin illatlarini bir joyga jamlab, kitobxonda yaxlit tasavvur uyg'otadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гегель Г.В.Ф. Эстетика. В 4-х томах. Том 1. – М.: Искусство, 1968. – С. 104-105.
2. Аристотель. Поэтика санъати ҳақида. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 12-15.
3. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980 (ёки 2005-йилги қайта нашри). – Б. 42.
4. Белинский В.Г. Полное собрание сочинений. Т. 4. — М.: Изд-во АН СССР, 1954. – С. 585.
5. Тимофеев Л. И. Основы теории литературы : учеб. пособие для студентов пед. ин-тов / Л. И. Тимофеев. – 5-е изд., испр. и доп. – Москва : Просвещение, 1976. – 448 с.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari:darslik – T.: Akademnashr, 2018. – B. 99.
7. Погодин Н.Ф. Театр и жизнь. – М.: Искусство, 1953
8. Қўшжонов М. Сўз санъати жозибаси. – Тошкент: Фан, 1970. – Б. 45
9. Sulton I. Adabiyot nazariyasi I. Sulton. – T. : O'qituvchi, 1980. – 288 b.
10. Ma'diyeva A.D. Adabiyotshunoslikka kirish: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Firdavs-Shoh nashriyoti, 2026. – 144 b.